

# SOCIAL SCIENCE AND INNOVATION

ISSN – 2992-9180

Volume II, Issue 1, Pages:48-55

Jild II, Son 1, Sahifalar: 48-55

- EDUCATION
- HISTORY
- PHILOSOPHY
- PEDAGOGY
- PHILOLOGY
- PSYCHOLOGY

IJTIMOIY FAN VA INNOVATSIYA

СОЦИАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ

Review

Ibrohim Rahmonjanov—  
Master Student National  
University Of Uzbekistan

Ibrohim Rahmonjonov  
Magistr  
O'zbekiston Milliy  
universiteti

Иброхим Рахмонджанов—  
Магистрант  
Национального  
университета Узбекистана

## XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA USMONIY TURKLAR O'RRTASIDAGI MUNOSABATLAR

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Usmoniy turklar o'rta sidagi munosabatlar aks ettirilgan bo'lib, iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar hamda o'zaro hamkorlik masalalari va Yosh turklar harakatining ta'siri kabi dolzarb masalalar tahlil qilingan.

**KALIT SO'ZLAR:** Buxoro amirligi, Usmoniy turklar, Rossiya, Yosh turklar.

## ОТНОШЕНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА И ОСМАНСКИХ ТУРКОВ В НАЧАЛЕ ХХ ВЕКА

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье отражаются отношения между Бухарским эмиратом и турками-османами в начале 20-го века, а также анализируются актуальные вопросы, такие как экономические и социальные отношения, а также вопросы взаимного сотрудничества и влияние младотурецкого движения.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Бухарский эмират, турки-османы, Россия, младотурки.

## RELATIONS BETWEEN BUKHARA EMIRATE AND OTTOMAN TURKS AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

**ABSTRACT:** This article reflects the relations between the Bukhara Emirate and the Ottoman Turks at the beginning of the 20th century, and analyzes current issues such as economic and social relations and issues of mutual cooperation and the influence of the Young Turks movement.

**KEY WORDS:** Emirate of Bukhara, Ottoman Turks, Russia, Young Turks.

Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgach, dunyodagi eng yirik imperiyalardan biriga aylanadi. Rossiyaning o'lkadagi siyosati iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy ezish bilan birlgilikda O'rta Osiyo xalqlarini jipslashtirmaslikka qaratilgan edi. Ana shu maqsadda Buxoro amirligida Rossiya imperiyasining Siyosiy agentligi (1855-1917) tashkil etildi va shu agentlik Rossiya manfaatlariiga mos harakatlarni muvofiqlashtirib turdi. Rossiyaning Buxoro amiri ustidan o'z nazoratini o'rstanitishi ziyorilar, savdogarlar va taraqqiyatparvarlarning noroziligiga sabab bo'ldi. 1910-yilda Buxoro amirligining 56 ulamosi maxsus xat yozib, Turkiya va Afg'oniston hukmdorlariga murojaat qiladilar va Rossiya zulmidan ozod qilishlarini so'raydilar.

XIX asr oxirlarida O'rta Osiyoga Usmoniylardan kirib kelgan g'oyaviy ta'sir XX asr boshlariga kelib ziyorilar orasida keng yoyildi. 1892-yilga kelib, Turkiyada "Ittihodi taraqqiy" nomli "Yosh turklar" tashkiloti vujudga keldi. 1893-yilga kelib esa ushbu tashkilot faoliyatini taqiqlanadi. Shunday bo'lismiga qaramasdan "Yosh turk"larning tashviqotlari Istanbul bo'ylab davom ettirildi. Natijada, 1897-yili ulardan jami 81 kishi qamoqqa olindi. 1899-yili sulton Abdulhamid II ularni osish haqida farmon chiqaradi. Guruhning qolgan a'zolari esa Afrikaga surgun qilindi. Sultonning bu qatag'on siyosati "Yosh turklar" ning faoliyatiga chek qo'ya olmadi. Ularning g'oyalari nafaqat Turkiya bo'ylab, balki O'rta Osiyoga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakati aynan "Yosh turklar" ta'sirida edi. Jadidlar jamiyat hayotida ijtimoy va madaniy islohotlar o'tkazish, milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'yan harakat edi. Turkiyada tahsil olgan turkistonlik ziyorilar u yerda amalga oshirilgan ijobjiy o'zgarishlar va islohotlar, texnika taraqqiyoti, yevropacha turmush tarsi, madaniyati va marifatidan ta'sirlanganlar va bu tartiblarning o'z yurtlarida joriy etish uchun harakat qila boshlaganlar.

XX asrning boshlarida Qrim, Qozon va Istanbulda chop etilgan darsliklar Turkistonda ham keng yoyilgan. Istanbulda faoliyat ko'rsatgan "Jamiyati xayriya", "Nashriyot" kabi shirkatlarning Buxoro va Xivada ham bo'limlari tashkil etilgan edi. 1908-yilgi inqilobdan keyin "Yosh turklar" ning hokimiyat tepasiga kelishi Rossiyani xavotirga solib qo'yadi. Buxoro va Toshkentda "Yosh turklar" ta'sirida vujudga kelgan "Ittihod va taraqqiy" tashkiloti inqilobdan keyin "Milliy Ittihod" va "Milliy Istiqlol" nomlari bilan atala boshlagan. Turkiyadagi siyosiy voqealar O'rta Osiyoga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi va ularga muqobil ravishda Xivada "Yosh xivaliklar", Buxoroda "Yosh buxoroliklar" harakati paydo bo'ldi. Tez orada O'rta Osyoning ko'plab shaharlarida ham shunday tashkilotlar paydo bo'la boshladi va katta nufuzga ega bo'ldi. Bu davrda Turkistonda "Yosh turklar" ning ko'plab a'zolarini uchratish mumkin edi. Bu davrda

Turkiyada sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar haqida Buxoro bozorlari va karvonsaroylarida suhbatlar bo'lar edi.

Buxorolik Usmonxo'ja o'rtog'i Hamidxo'ja bilan yangicha o'qitish usulini o'rganish uchun Istanbulga keladi. Usmoniyarning harbiy vaziri Anvar Posho ularni rasmiy vakil sifatida oliy darajada kutib oladi. Bundan xavotirga tushgan Rossiya elchisi bu haqida rus ma'murlariga yetkazadi. Buxoro amiri bu tashrifni faqat ilmiy uchrashuv sifatida bo'lganligini bildiradi. 1914-yilga kelib, Usmonxo'ja maktablari soni 200 taga yetadi.

Shuningdek, bu davrda Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja, Abdurafiq Rafiy Mahdum kabilar Buxoroda "Tarbiyayi-atfol" nomli jamiyat tashkil etishadi. Ularning asosiy maqsadi O'rta Osiyolik o'quvchilarni Turkiyaga o'qishga yuborish edi. Ushbu jamiyat 1911-yil 15 ta, 1912-yil 30 ta Talabani Turkiyaga o'qishga yuboradi. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, faqatgina Buxorodan 1910-1913-yillarda Istanbulda o'qish uchun 75 ta talaba, butun Turkistonдан esa 95 ta talaba yuborilgan edi.

Istanbulda nashr etilgan barcha davriy nashrlar va ilmiy adabiyotlardan hech bir turkistonlik bebahra qolmasdi. Ahmad Zakiy Validiyning ma'lumotlariga ko'ra, Cho'lpon va uning safdoshlari "Turk yurti", "Sayra" nomli nashrlarning doimiy muxlislari bo'lishgan. 1910-1913-yillarda Fitratning bir qancha asarlari Istanbulda forsiy tilde nashrdan chiqqan. Shuningdek, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning

topshirig'i bilan turk tarixchisi Ibrohim Hasan poshoning "Tarixi umumiy" asari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

XX asr boshlaridan ko'plab o'zbek ziylolari Turkiyada tahsil olishgan. Masalan, Fitrat Istanbul dorilfunida tahsil olgan. U vatandoshlari bilan birgalikda Istanbulda "Buxoro tamimi maorif jamiyat" deb nomlangan jamiyat tuzadi. Bu jamiyat fikrimizcha, buxoroliklarning o'zaro moddiy-ma'naviy uyushmasi vazifasini bajargan.

XX asr boshlarida "Yosh turklar" inqilobi natijadasida Turkiya ko'taringi kayfiyatda edi. Bu kayfiyat Fitratning ijodiga ham ta'sir etmas qolmadı. Fayzulla Xo'jayevning ma'lumotlariga ko'ra, uning dastlabki she'riy to'plami "Sayha" nomi bilan 1911-yil Istanbulda nashr etilgan. Undagi she'rlarda Buxoro mustaqilligi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalangan.

Fitratning tariximiz va adabiyotimiz oldidagi xizmatlari katta. U 1914-yilga kelib, Buxoroda havaskorlar teatrini ochadi. Undan tushgan pullarni esa Birinchi jahon urushida jabrlangan turk askarlari uchun Turkiyaga yuboradi. Buning uchun u Buxoro qushbegisidan mukofot ham olgan.

1913-yillarda Istanbul, Qozon va Ufada tehsil olgan buxorolik yoshlar o'z yurtlariga qayta boshlashadi. Ular dastlab Buxoroda matbuot ishini yo'lga qo'yadilar, "Turon", "Buxoroi sharif" kabi gazetalarni chiqara boshlaydilar. Bundan tashqari Munavvarqori Abdurashidxonov o'z

do'stlari Ubaydullaxo'ja Asatullaxo'jayev, Abdulla Avloniy va Toshpo'latbek Norbo'tabekovlar "Jamiyat xayriya" tashkilotini tuzadilar. Jamiyat a'zolari qashhoqlar, kasalmandlar va o'quvchilarga yordam berish bilangina cheklanib qolmaydilar. Ular Turkiya, Qozon va Ufaga talabalar yuborish bilan ham shug'ullanadilar.

Turkiston yoshlarining Turkiya bilan bunday yaqinlashishi Rossiyani xavotirga solgan, albatta. Rossiya maxfiy politsiyasi – Turkiston rayon muhofaza bo'limi bunday guruhlarning faoliyati haqida yetarlicha ma'lumot to'plashga erishgan edi. Ushbu bo'limning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyada inqilobdan keyin O'rta Osiyoga ko'chib keluvchi turklar soni ortgan. Ular aholi o'rtasida Amir Abdulahadga qarshi kayfiyat paydo qilib, Turkiya tarafdoi bo'lgan ukalaridan birini hokimiyatga olib chiqishga harakat qilganlar. 1910-yil yanvar voqealarida chet el fuqarolari, jumladan turklar ham qatnashadilar. Ular bu voqeadan keyin Buxoroda "qo'poruvchilik" kayfiyatini to'xtatmadilar. 1910-yili Eron orqali Buxoro hududiga turkiyalik Mahmud va Mustafo afandilar keladilar. Ularga "Ittihod va taraqqiy" tashkiloti tomonidan Amir Abdulahadga qarshi aholining noroziligini uyg'otish vazifasi yuklatilgan edi. Bundan xavotirga tushgan Turkiston general gubernatori Samsonov Stolipinga: "turklar yangi sunniy va shia to'qnashuviga tayyorgarlik ko'rmoqdalar", - deb ogohlantiradi.

Turkiston rayon muhofaza bo'limi bergen ma'lumotlariga ko'ra, bu voqeadan keyin barchaning uyida, hatto madrasalarda ham qurol saqlanadigan bo'lgan. Bunga qarshi rus hukumati qattiq choralar ko'rishga majbur bo'lgan. Muhofaza bo'limi Turkiston ziyolilarini doimiy kuzatib turishgan. Bo'lim boshlig'i M.Volkovning ma'lumotlariga ko'ra, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev 1913-yildan panislomchi sifatida ma'lum. U "Umid" nomli tashkilotga yetakchilik qilgan. Ushu jamiyat Turkiya va boshqa musulmon davlatlardan kitob olib kelish bilan shug'ullanar edi. Shuningdek, Muhofaza bo'limi Turkiyada "Yangi jomiy" maktabi tashkil etilganligi va unda Buxoro yoshlaridan iborat targ'ibotchilar ham tayyorlanayotganligi haqida ma'lumotlar olishgan edi.

1913-yilda "Musulmonlar kengashi" nomli tashkilotning "Musulmonlarga" xitobnomasida o'sha davrda bo'layotgan voqealar haqida tariflangan. Unda Yunoniston va Usmoniyalar o'rtasida urush bo'layotganligi va bu urushda musulmonlar Turkiyaga yordam berishlari kerak ekanligi ta'kidlangan edi: "Ovro'paliklar musulmonlarni o'ldirishmoqda va ezishmoqda. Shuning uchun musulmonlar Turkiya atrofida birlashishlari lozim".

Shuningdek, bu siyosiy tashkilotning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroda siyosiy tashviqotlarni olib borish uchun Turkiyadan Usmon, Sayid, Burxon va Xayfi afandilar yo'lga chiqqanlar. Bosh

shtabning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Said afandi 1910-yili Krasnovodsk orqali Turkistonga, undan Qoshg'arga Qur'oni Karim nusxalarini olib o'tgan va sulton nomidan ularni xalqqa ulashgan.

Matbuot bu davrda Turkiya va Buxoro ahli o'rtasidagi vositachi edi. Shuning uchun ham Turkistonga kirib kelgan har bir varaq qog'oz Muhofaza bo'limi tomonidan diqqat bilan o'rjanilardi. 1910-yildan boshlab qo'qonlik magazinchi Is'hoq Sharipov nomiga "Istanbul yangiliklari" haftalik gazetalari kelib turgan. Rossiya ma'murlari bu gazetani "Usmonizm g'oyalarini tarqatuvchi buzg'unchi gazeta", - deb hisoblagan va uni o'quvchilarni doimiy nazoratga olgan.

XX asr boshlarida Abdurashid Ibrohimov, Behbudiy va Fitrat kabi ziylolarning Turkiya gazetalarida maqolalari tez-tez chiqsa boshlaydi. Ularning maqolalari faqatgina Turkiyada emas, balki Qrim, Volgabo'y, Kavkazorti, Buxoro, Turkiston va Qoshg'arda ham keng tarqala boshlaydi.

1910-yili kitobsevarlarning "Umid" jamiyati Toshkentda o'z faoliyatini boshladi. Uning maqsadi Turkiston aholisining dunyoqarashini o'stirishga qaratilgan edi. Turkiyadan kelgan nashrlar avval Toshkentga keyin viloyatlarga tarqatilar edi. Bu nashrlar Rossiya hukumatini nihoyatda cho'chitar edi.

XX asr boshlarida jadidlar o'lkadagi siyosiy jarayonlardagina emas, balki tashqi siyosatda ham faol ishtirok etishgan.

Turkiyada chiqadigan "Tanin" gazetasini orqali ular butun dunyoda bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lib turishgan. "Yosh turklar" tomonidan nashr etiladigan "Tanin", "Ikdam", "Sho'roi ummet" gazetalari Turkiston va Buxoro aholisini Turkiya bilan yaqinlashtirgan. Bu davrda "Rus podshosi va amirning ikkiyoqlama zulmi jadidchilik harakatini madaniyat taerqatish bilan shug'ullanish yo'lidan siyosiy yo'lga burib yubordi".

Birinchi jahon urushi arafasida Britaniya va Germaniya Turkiyani o'z taraflariga og'dirish uchun raqobatlasha boshladilar. Britaniya Turkiyaga Germaniya siyosatining "samamiy" emasligini tushuntirishga harakat qildi. Germaniya esa Turkiyaning Rossiyaga nisbatan O'rta Osiyo siyosatini qo'llab-quvvatladi. Angliya Turkiya liberallarini qo'llagan bo'lsa, Germaniya "Yosh turklar" bilan yaqinlashdi. Germaniya Turkiyaga moliyaviy yordam ko'rsatganligi tufayli uni o'z tomoniga og'dirib oladi. 1913-yilning 8-noyabrida Germaniya va Turkiya harbiy ittifoq to'g'risida kelishib oladilar. Natijada, Turkiyaning Dardanell bo'g'ozidagi harbiy qo'shiniga nemis generali Limon fon Anderson qo'mondon etib tayinlanadi. Keyinchalik bu general butun Usmoniyalar qo'shiniga qo'mondon etib tayinlanadi. Turkiya 1914-yil 2-avgustda Germaniya bilan harbiy ittifoq tuzadi va ittifoqni boshqa davlatlardan yashirishga harakat qilgan. Shuning uchun "Yosh turklar"ning vakillari – Anvar posho Rossiya bilan, Jamol posho Britaniya bilan, Jabdad posho Fransiya bilan muzokaralar

olib borgan. Urush arafasida Rossiya Turkiyani o'z ittifoqchisi qilish uchun har qanday shartlarga rozi edi.

Urush boshlangan davrning ilk kunlaridayoq Turkiya urushda betaraf ekanligini e'lon qilgan bo'lsa-da, amalda urushda asosiy qatnashchi sifatida qatnashishga qaror qilgan edi. Turkiyadagi asosiy boshqaruvchi Anvar posho edi. Uning maqsadi, urushda g'alaba qozonib, Turkiyaning dunyo siyosatiga ta'sir o'tkaza oladigan davlatga aylantirish edi. Ammo urushda ular mag'lubiyatga uchragach, "Yosh turklar"ning liderlari hokimiyatni topshirishga majbur bo'ladilar va Germaniyaga qochib ketadilar. Hokimiyatni qo'lga olgan Izzat posho Antanta bilan yarash shartnomasini imzolaydi. Birinchi jahon urushi Turkiya uchun qimmatga tushdi. Uning hududi Antanta davlatlari tomonidan bo'lib olinadi.

Bu davrda Turkistondagi jadidlar o'zlarining turklarga xayrixoh ekanliklarini yashirmaganlar va Turkiyaga moddiy va ma'naviy yordam berishda davom etganlar. Shu maqsadda Buxoroda Hoji Jo'rabek, G'iyos Oqsoqol, Abdurauf karvonboshilar tomonidan katta miqdorda xayr-ehson yig'ilib Turkiyaga jo'natilgan. Shuningdek, Buxoroda yordam uchun savdogarlardan "tuman" deb atalgan yordam puli ham yig'ilgan. Buxoroda hali urush boshlanmasidan oldin, Rossiya Turkiyaga urush boshlamoqchi degan mish-mishlar tarqatilgan. 1912-yil oktabrda Buxoroning bosh muftiysi

Husain G'ulom Muhammedov sakkizta shogirdi bilan Istanbulga boradi va yig'ilgan jami 70 ming rulb miqdordagi pulni topshiradi. Buxoro saroyida xizmat qilgan asli turk millatidan bo'lgan Abdulmajid shayx ham bu ishlarga boshchilik qilgan. U turk sultonii Abdulhamid II ning ishonchli odamlaridan biri bo'lib, u Andijon qo'zg'alonida ham qatnashgan. Ma'lumotlarga ko'ra u O'rta Osiyoga maxsus topshiriq bilan kelgan. Buxorodagi siyosiy agentlik xodimlari uni siyosiy jinoyatchilikda ayblaydi.

Birinchi jahon urushida qiyin ahvolga tushib qolgan Turkiyaga Turkiston aholisi ham ma'naviy ham moddiy jihatdan yordam bergen. Masalan, 1914-yil yanvar oyida Baljuvon begi Jahongirbek Turkiya havo kuchlari uchun 15000 rublni Istanbulga jo'natadi. Buxoroda ham yordam puli yig'ilgan.

Birinchi jahon urushida Turkiya uchun pul yig'ish Farg'ona vosiysida ham keng quloch yoyadi. 1915-yil Andijonda aholini Turkiyaga yordam berishga undab yozilgan varaqalar topilgan. Bundan xavotirga tushgan rus ma'murlari tintuv ishlarini olib borishadi va andijonlik Ro'ziboy So'fiyev uyidan shunday varaqalardan 31 tasi topiladi. Ularda usmoniyilar davlati bayrog'i rasmi tushurilgan edi. Andijonda esa bu ishni Mirkomil Mirmo'minboyev tashkillashtiradi. Rus ma'murlari tomonidan uning uyi ham tintib ko'rildi va u qamoqqa olinadi.

Birinchi jahon urushida Rossiya faol harakat qila boshlaydi. U urushga puxta tayyorgarlik ko'rganiga qaramasdan, iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchsiz ekanligi tez orada sezilib qoladi. Natijada, Rossiyada siyosiy tanglik kuchayadi. Bir tomondan Rossiya mustamlakasi bo'lgan Turkistonda mardikorlik bilan bog'liq muommolar vujudga kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Turkiston aholisi orasida imperatorning kuchsizligi, urushda mag'lubiyatga uchrashi, Turkiya va Germaniya g'alaba qiladigan bo'lsa, O'rta Osiyo aholisi Turkiya tarafida turishi, Turkiya armiyasi ehtiyojlari uchun mablag' jo'natib turish kabi rejalar mavjudligi Rossianing bu hududdagi nazoratini juda qiyinlashtirgan.

1915-yili Buxoroga Amir Olimxonning amakisi keladi. U 5000 dan ortiq musulmonlar bilan masjidda juma namozini o'qidi va xalqdan turk askarlari uchun 3000 rubl miqdorda pul yig'ishadi. Tashkilotchilar xalqni Turkiya va Anvar poshoga yordam berishga chaqirganlar.

Birinchi jahon urushi boshlangan davrlarda Toshkentdagi Kolizey kinoteatrida aholi uchun Birinchi jahon urushi haqida film qo'yiladi. Ushbu filmni ko'rish uchun, hatto Turkiston general-gubernatori ham keladi. Filmning boshida dastlab, Rossiya askarlari ko'rsatiladi. Shundan keyin, dunyoning boshqa davlatlari askarlarining harbiy paroslari ham ko'rsatiladi. Turkiya askarlari ko'rsatilganda butun zal jumbushga keladi va ularni olqishlaydi. Jahli chiqqan

gubernator zalni tark etadi. Shu bilan ushbu film boshqa ekranlarda qo'yilmaydi.

Birinchi jahon urushi haqida Turkistonda "Sadoyi Turkiston", "Vaqt" gazetalarida doimiy xabarlar berib borilgan. Bunday gazetalarda turk askarlari va ularning jangovor harakatlari haqida ham maqolalar chiqib turgan.

Birinchi jahon urushida Rossiya Turkiston fuqarolaridan mardikor sifatida front orti xizmatlari uchun safarbar qilish bo'yicha qaror qabul qiladi. Natijada Turkistonda katta qo'zg'alon yuz beradi. Ular : "Biz Turkiyaga qarshi bo'layotgan urushda Usmoniyalar dushmanlarining safida bo'lmaymiz" degan fikrlarni ochiqchasiga aytganlar.

Kavkaz frontida asirga olingan turk askarlari ham mardikorlikka safarbar etiladi. Ular bilan Turkistondan borganlar o'rtasida birodarlashuv yuz beradi. Rossiyada imperiya ag'darilgach, asirga olingan turklar va Turkistonliklar o'z ona yurtlariga qaytariladi. Asirlikdan qutulgan ko'pchilik turklar turkistonliklar bilan birgalikda O'rta Osiyoga qaytadilar. Ular Samarqand, Buxoro, Toshkent, Andijon, Farg'ona va boshqa shaharlarda o'qituvchilik bilan shug'ullanganlar. Roji Chaqiro'zning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Turkistonga jami 80 ga yaqin turk askarlari ko'chib kelgan.

1917-yilda Toshkentga Ahmad Zakiy Validiy keladi. U Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayevlar bilan uchrashadi. 1920-yili u Buxoroda Turkistondagi barcha qarshilik harakati

guruuhlarini birlashtira oladigan, ularga rahbarlik qila oladigan markaz tuzish uchun harakat qila boshlaydi. U 1921-yil avgust oyida “O’rta Osiyo Milliy Musulmon jamiyati Federatsiyasi” keyinchalik, “Turkiston Milliy Birligi” nomi bilan mashhur bo’lgan uyushmaga asos soladi. U Turkiyadan kelgan Anvar posho bilan Turkistondagi siyosiy vaziyat haqida bir necha marta maslahatlashgan.

1921-yili u Buxoro qo’rboshilar bilan uchrashuv o’tkazadi va kenngashda “islom qurolli kuchlari bosh qo’mondoni” deb elon qilinadi. Kengashning barcha qarorlari Buxoro amiri Amir Olimxon tomonidan ma’qullanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рахмонкулова З.Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи. Монография. – Тошкент: 2002. – Б. 83.
2. Каримов Н. XX аср бошларида тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши. Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар.-Т.:Университет. 1999. – С. 32.
3. Павлович М. Революционная Турция.-М.: Государственное издательство. 1921.-35 с ; Алимов А. Революция 1908 г. в Турции. - М., 1935. – С. 40.
4. Қосимов Б. Маслақдошлар. -Т.: Шарқ. 1994. – Б. 74.
5. Холбоев С. Миллий Университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. -Т.: Шарқ. 2003. – Б. 128.
6. Закий Валидий Тўғон. Хотиралар // Шарқ юлдузи. 1993. №5-6
7. Қосимов Б. Маслақдошлар. -Т.: Шарқ. 1994. – С. 74.
8. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 жилдик, 1-жилд. -Т., 1976. – Б. 78.
9. Рахмонкулова З.Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи. Монография. – Тошкент: 2002. – Б. 87
- 10.Дўстқораев Б. Туркистон жадидларининг йирик сиймоси // Жаҳон адабиёти. 1998. №3. - Б. 149.
- 11.Ўзбекистоннинг янги тарихи. I китоб.-Т.: Шарқ. 2000. – Б. 271